

SHOIR ASARLARIDAGI XUDODAN MADAD SO'RASH VA O'LIMNI ESLASH MOTIVI

*Avtor: Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri Ajiniyoz nomidagi NDPI
"Filologiya" fakulteti qoraqalpoq tili va adabiyoti yo'nalishi 2A kurs talabasi*

Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna

Kalit so'zlar: *Haq, azroyil, inson, foni, dunyo, jannat.*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Ajiniyoz shoirning she'rlaridagi yoki asarlaridagi xudodan madad so'rash va o'limni eslash motivi haqida ideyalari katta doirada o'rganilib chiqilgan.*

Zivar aytar sana kelur shum o'lim,
So'yla qozon urib so'lmayin guling.

Adabiyotni o'qigan harbir inson undagi falsafiy, didaktik, lirik hislar va xayollar bilan tanishib o'zida ham shu xayollar bilan hislar paydo bo'ladi. Insonning bu dunyodagi o'rni, uning hayotda yashashi, o'limnan keyingi hayoti, yuraktagi kuchli hislarni faqat kuchli shoirlar xatga tushira oladi. Sababi inson va uning qalbi juda nozik va qiyin mavjudot.

XIX asr qoraqalpoq klassik shoiri Ajiniyoz asarlari bilan tanishsak uning shunday nozik va qiyin mavjudot insonni, yaxshi tariflik, uning hislarin kuchlilik bilan tasvirlaganin ko'rsak bo'ladi. Insonning bu hayotda mangu yashamasligin uning hayotdagi asosiy vazifasi, hamma narsa Yaratganni qo'lida ekanligin shoirlar juda yaxshi sezadi. Ajiniyoz shoir ham bu narsalarni asarlarida tez-tez eslatadi. Misol uchun, "Har kim barham topur foni, dunyoda" she'ri aynan shu mazmunda yozilgan.

Har kim barham topur foni, dunyoda,-A
Davlat ersa, bo'lsa agar himmati,-B
Har kimning maqsudi bo'lgay ziyoda,-A
Xolis bo'lsa ixlos bilan niyati.-B

Ketur bu dunyodin mol birla davlat,-A
Bo'lsin har bir odamzodda sahovat,-B
Er yigitga mehmon kelsa bir muddat,-A
Kelur mehmon bilan olg'on rahmati.-B

Zivar aytar haq ishiga bo'l qoyil,-A
Haq yo'lida qurbon bo'ldi Ismoil,-A
Qahrlanib kelsa bir kun azroil,-A
Bermas omon, bo'lmas bir zum muhlati.-B

Bu she'rda arab tilidan o'zlashgan so'zlar ko'plab qollanilgan va shoirning ideologiyasida islom dini asosiy o'rinda turadi. She'r qurilishiga kelsak sillabika o'lchamida ya'ni bo'g'inlar soni 11-12 aralash va bir xil usulda yozilgan. Shoirning dunyoning foni ekanligi insonning hayotidagi qiyinshiliklarning vaqtinsha ekanligini ko'plab she'rlarin lirik hislar bilan xatga tushir olgan. Shoirning eldan yiroqda yurgan kunlarida ham u o'ziga o'limni eslatib bir kun jannat bog'larida bo'lasan deya tasalli beredi.

Hor xosh yigit urush kuni,
Dolanur maydon ishinda,
Mard bolan nomardni farqi,
Bilinur maydon ishinda. ("Ishinda" she'ri)

Bu she'rda aytilgan.

Haq– Yaratuvchi Xudo Olloh toala hur, mo'min bandalarga jannatda tayorlab qo'yilgan go'zal qizlar.

Shoir qiyin kunlarida shunday lirik she'rlar bilan o'ziga tasalli bergan va doim yaratuvchi Ollohdan madad s'rap yurgan.

Zivar aytur tilda barin,
Eshit Olloh, ahu-zorim,
Xorazmni bir xabarin,
Bilmayin hayrona megzar.
("Megzar" she'ri)

Shoir foni dunyo haqida ko'p aytib she'rlarida o'ziga o'limni eslatib turgan.

Yog'on dunyo o'tar ketar,—A
Dushman oyag'ingda yotar,—A
Ajal bir kun sharob tutar,—A
Sud aylamas giryani endi.—B

Shoirning "Yoqti" she'rda bu motiv asosiy o'rinda turadi.

So'zla ha, bulbul zabonim,
Eki kelur zaman yoqti,
Ketar bir kun shirin jonim,
Bu so'zimda gumon yoqti.

Jon bir guldur solur olsa,
Azroyildan xabar kelsa,
Joning taningdan ayrilsa,
Ondin bashqa yaman yoqti.

Kimlar oshiq bo'lib o'tdi,
Kimlar maqsudina yetti,
Qora yer barchisin yutti,

Yolg'on dunyo quyan yoqti.

Ozing bilan va qiz-juvon,
O'ynab kulib surar davron,
Barsha bu dunyoga mehmon,
Tiri yurar zamon yoqti.

Ajiniyoz shoirning lirik asarlari faqat go'zallik shaydosi yoki muhabbat haqida emas balki dunyoning mangu emasligi insonnnig bir kun olamdan ketishi haqidagi fikrlari bilan ham sug'orilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Q.Jarimbetov maqolasi 2024-yil 5-son "Amudaryo" jurnali
- 2.A.Karimov "Ajiniyoz lirikasi"